

## MUQIMIYNING TANOBCHILAR ASARLARIDAGI IQTISODIY QARASHLARI

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Raqamli Iqtisodiyot fakulteti 2-kurs talabasi  
Madatboyeva Kumushoy  
kumushmadatboyeva2004@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab ijod qilgan buyuk shoir Muhammad Aminxo'ja Muqimiyning hayot va ijodi, "Tanobchilar" asarlaridagi iqtisodiy qarashlari haqidadir. Muhammad Aminxo'ja "Muqimiy" taxallusi ostida 15 yoshidan boshlab ijod qila boshlagan. Muqimiy o'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirgan. U o'z asarlarida o'sha davrda ro'y bergan iqtisodiy siyosiy holatlarni tasvirlab bergan va asarlarida asosan o'sha davrdagi davlat rahbarlari va amaldorlarning nohaqliklari, oddiy aholiga qilgan zulmlariga haqida bo'lgan.

**Kirish so'zlar:** Muqimiy, mutaffakir, tanobchilar,

### **Kirish.**

Muqimiy o'z ijodida XIX-XX asrlarda jamiyatimizda yuz bergan iqtisodiy-ijtimoiy holatlarni, amaldorlarning xalqqa qilgan zulmlari va nohaqliklarini yaqqol tasvirlab bergan buyuk mutafakkirlarimizdan biri hisoblanadi. U o'z asarlarida manfaatparast amaldorlarni qoralab chiqqan. Shu bilan og'ir aziyat chekkayotgan xalqni tasvirlagan. Sobiq SSSR davrida yashab ijod qilgan jadidlarimiz o'z asar va g'azallari orqali o'sha davrda yuz bergan nohaqliklar va aholiga bo'lgan zulmlarni ochiqchasiga tasvirlaganligi sababli sobiq SSSR davrida davlat hoyini deya qoralangan. Keyinchalik davlatimiz Mustaqillikka erishgandan so'ngra ushbu buyuk adiblarimiz nomlari davlat arbobi sifatida qayta tiklandi va ularni nomi oqlandi. Ushbu adiblarimiz qatorida Muqimiy ham alohida o'ringa egadir.

O'zbek adabiyotining yirik namoyondasi buyuk shoir, mutaffakir, davlat arbobi bo'lgan. Muhammad Aminxoja Mirzaxoja o'gli Muqimiy 1850-yilda Qo'qon shahrida Bekvachcha mahallasida, nonvoy oilasida tugllgan. Otasi Mirzaxo'ja Mirfozil o'gli nonvoylik kasbi bilan shug'ullangan. Onasi Oyshabibi Sayidolim Nodirshayx qizidir. Mirzaxoja bilan Bibioysha oilasida beshta farzand bolib, Muhammad Aminxoja uchinchi hamda yolg'iz o'g'il edi. Muqimiyning onasi Oyshabibiajoyib ta'limga ega, og'zaki ijodni juda yaxshi bilgan iqtidorli shoira bo'lgan. Aynan shu ayol tufayli Muqimiyda shoirona iqtidor rivojlanadi, Oyshabibi o'glini Alisher Navoiy, Hofiz Jomiy kabi ijodkorlar qiyofasida sharq mumtoz adabiyoti bilan tanishtiradi va

umrining oxiriga qadar ularga bolgan muhabbati saqlanib qoladi. O'zining birinchi she'rini o'n yoshlarida yozadi. Muhammad Aminxoja 15-16 yoshlaridan boshlab "Muqimiy" taxallusida she'rlar yoza boshlaydi. 1865 yil Muqimiyga ma'nan ko'mak berib turuvchi onasi vafot etadi. Natijada, Muqimiyning she'rlarida erta hayotdan ko'z yumgan onasiga nisbatan motam soyasi seziladi. Muttasil davom etgan moddiy muhtojlik, kamsitish va ta'qiblarshoir soglig'iga ta'sir qilgan edi. 1898-1899-yillarga kelib Muqimiy tez-tez kasalga chalinib, 4-5 oylab yotib qoladi va xastalik tufayli 1903 yil 25 may, dushanba kuni 53 yoshida o'z hujrasida vafot etdi. Shoir Qo'qondagi Shayxon qabristoniga dafn etilgan. Uning vafotiga bag'lab o'sha davming peshqadam shoirlari bolmish Mavlaviy Yoldosh va Sulaymonqul Rojiiy marsiya-ta'rixlar yozib qoldirganlar.<sup>i</sup>

Muqimiy o'z ijodi davrida ko'plab sherlar va asarlar yozdi. Bular «Oshiq bo'libman», «Ayrilmasun», «O'zim har joydaman», «Aqlu hush uchdi boshimdin...», kabi she'rlari, «Tanobchilar», «To'y», «Saylov (Adabiyot)» va boshqa mashhur asarlari bor.

Muqimiy Qo'qondagi Nodira bino qildirgan „Moxlar oyim“ madrasasida, so'ng Buxoro madrasalaridan birida o'qigan (1864-1865; 1875-1876). 1876-yilda Qo'qonga qaytgach, yer qurilishi mahkamasida mirzalik qilgan faoliyati vaqtda amaldorlarning qallobliklarini befarq kuzata olmasdan „Tanobchilar“ satirasini yozgan.<sup>ii</sup>

Adibning eng mashhur asarlaridan biri bu "Tanobchilar" hajviy asaridir. Asarda kambag'al dehqon mehnatlarida manfaatlari uchun foydalangan, Sulton Ali va Hakimjon kabi hiylakor mahalliy amaldorlar ko'rinishi shoir tomonidan o'tkir, ta'sirchan usulda fosh etiladi. "Tanobchilar" satirik hikoyasi amaldorlar zulmiga dehqon arz-dodi bilan boshlanadi.

#### TANOBCHILAR

Bo'ldi, taajjub qiziq hangomadar,  
Arz ebayin emdi yozib nomalar.  
Adi qulog'i-la eshit holimi,  
Zulm qilur, baski, menga zolimi.  
O'n iki oyda keladur bir tanob,  
O'zgalara rohat-u menga azob.<sup>iii</sup>

Ushbu asarda o'sha davrdagi aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti aks eta boshlagan. Asar misralardan oddiy dehqonlarga zulm qilinayotganligi yaqqol tasvirlanilgan. Bunda har o'n ikki oyda keladigan tanob dehqonlar uchun yangi qiyinchiliklar olib kelishini haqida so'z boradi. Ushbu asar misralaridan ko'rinib turibdiki o'sha davrning iqtisodiy holati ya'ni amaldorlarning oddiy xalqqa qilgan zulimlari yaqqol aks etgan. Muqimiyning "Tanobchilar" hajviy asarida tanob bu yer

olchash vazifasini bajargan. Bunda dehqonlar yerdan olinadigan solig'ini o'zlari egalik qilayotgan yer maydonidan kelib chiqib to'laganlar. Shuning uchun u davrda tanobchilar aholi yer maydonlaridan kelib chiqqan holda soliq yig'imlarini to'plagan. Soliqlar bevosita soliq to'plovchi shaxslar xohishiga ko'ra amalga oshirilgan. Muqimiy "Tanobchilar" asarida shu davrning soliq tizimiga bog'lagan ko'rinishda yozgan. Asar orqali o'sha davrdagi ba'zi adolatsiz tanobchilarni o'z asarida tasfirlashga harakat qilgan. Shu bilan ularni qilayotgan noto'g'ri ishlardan ogohlantirish orqali odamlarni, ayniqsa shu tizim vakillari tanobchilarni adolatga chaqirgan.

### **Xulosa.**

Muqimiy ma'naviy juda boy inson bo'lgan. Uning hayot yo'llari o'g'ir kechishiga qaramasdan u butun umrini ijodga bag'ishlagan. Muqimiyning asarlarini o'rganishda biz o'sha davrdagi davlatdagi iqtisodiy holatni ham tahlil qilish mumkin. Uning asarlarida xattoki bugungi kunda ham amaliyotga qollash mumkin bolgan iqtisodiy jihatlarni uchramiz. Ushbu davr og'ir davr bolishiga qaramasdan, Muqimiy o'z asarlarida qo'rqmasdan amaldorlar, boshqaruv tizimi va mamlakatda soliq tizimlarini tanqid qilaolgan. Hozirgi kunda esa davlatimizda so'z erkinligi to'liq ta'minlangan va fuqorolar jamiyatdagi voqea va hodisalar haqida o'z fikirlarini bildirishlari mumkin. Muqimiy hayoti va ijodini o'rganish buni keng ommaga va yoshlarga, ayniqsa bo'lajak iqtisodchi kadrlarga kerakli ekanini angalaymiz. Uning hayot yo'llaridan rahbarlarning o'rnak olishi, asarlaridan esa o'sha davirning iqtisodiy holati to'g'risida ma'lumot olish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muqimiy>
2. Maxmudov N.M., Avazov N.R. "Muqimiyning iqtisodiy qarashlari". Ilmiy risola. - T.: "IQTISODIYOT", 2021. - 56 bet.
3. <https://tafakkur.net/muhammad-aminxoja-muqimiy.haqida>

<sup>i</sup> Maxmudov N.M., Avazov N.R. "Muqimiyning iqtisodiy qarashlari". Ilmiy risola. - T.: "IQTISODIYOT", 2021. - 56 bet.

<sup>ii</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muqimiy>

<sup>iii</sup> <https://tafakkur.net/tanobchilar/muhammad-aminxoja-muqimiy.uz>